

## **O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUHITNING O'ZIGA XOSLIGI**

*Ma'murjonova Kamola Ravshanovna*

*Toshkent viloyati Toshkent tumani 15-maktab psixologi*

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, uning yechimini aynan ta'lim va tarbiya bilan yoshlarni shakllantirishimiz kerak ekanligiga amin bo'lamiz. O'smirlardagi agressiya nafaqat pedagoglar va psixologlar, balki butun bir jamiyat uchun birmuncha o'tkir muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, hayotning yuqori ritmi, shaharlarning zichligi, ortib borayotgan axborot vositalari insonlar psixik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'smirlar jinoyatchiligining o'sib borayotgan oqimi va axloqning tajovuzkor shakliga moyil bolalar sonining ortishi bunday xavfli ko'rinishlarni uyg'otuvchi psixologik sharoitni o'rganishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida ilgari surdi. Tajovuzning u yoki bu shakllari ko'pchilik o'smirlar uchun xarakterlidir, biroq ma'lumki, muayyan kategoriyadagi bolalarda tajovuzkorlik axloqning turg'un shakli sifatida nafaqat saqlanadi, balki shaxsning turg'un sifatiga transformatsiyalanganicha rivojlanadi ham, natijada bolaning mahsuldor potentsiali pasayadi, to'laqonli kommunikasiya imkoniyati torayadi, uning shaxsiy rivojlanishi deformatsiyalanadi. Agressiv o'smir nafaqat atrofdagilarga, balki o'ziga ham bir talay muammolar keltiradi. Tajovuzkorlik shaxsning turg'un shaxsiy chizig'iga aylanmasligi uchun bola axloqining xususiyatlari va hissiy holatini tushunmoq, o'z vaqtida psixokorreksion ishni tashkil eta olmoq darkor. O'smirlarning tajovuzkor axloqini o'z vaqtida aniqlash bola shaxsining rivojlanishidagi noxush holatning oldini olish uchun juda zarur hisoblanadi. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'smirlik davrida o'smirning

“men”i qaytadan shakllanadi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyati yo'nalishi keskin o'zgaradi. Ularda ilgari qiziqishlar so'nadi va yangi qiziqishlar paydo bo'ladi. Bunda ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirlarning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, o'zidan qoniqmasligi, agressiya, xavotirlanish kayfiyat beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish, arziyas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish, o'zini past baholash kabi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida bolalar hissiy jihatdan beqaror bo'lib qoladilar. Bu paytda o'smirning oilasidagilar ham u bilan muloqotni kuchaytirishi zarur. Psixologlar buni gormonal o'sish, tanani qayta qurish, balog'atga yetish kabi biologik omillar bilan bog'laydi. Ammo ba'zi hollarda hissiy o'zgarishlar radikal shakllarga ega bo'lib, agressiyaga aylanishi mumkin. Agar o'smir o'z agressiyasi bilan yolg'iz qolsa, bu uni buzg'unchi jamoalarga olib kirishi va natijada huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin. Odamlar biron-bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani o,,zi istaganidek qilishni istaydigan, o,,z g,,oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo,,q muammolar girdobiga o,,zini giriftor qiladigan inson, deb ta'riflashlari mumkin. O'smirlar agressiv xatti-harakatning paydo bo'lishi va namoyon bo'lishida quyidagi asosiy sabablar mavjud: Oilaviy muhitning nosog'lomligi. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar, o'zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, oiladagi rahbarlik uslubining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va noto'liq bo'lgan oilalarning mavjudligi o'smirlarda agressiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Agressiv xulq-atvor natijasi qotillikkacha olib borishi mumkin. Tadqiqotchilardan biri bo'lgan F.Getting qotillar ko'p hollarda to'liq bo'lmagan oilalardan chiqqanini aniqlagan. Uning “Oiladagi agressiv bolalarni o'rganish” bo'yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko'ra, noto'liq oilalarda o'ta qahrli, qo'pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha to'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog'lom muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir. Shaxs taraqqiyotining har bir bosqichi

rivojlanishning maxsus alohida vaziyatiga ega va shaxsga ma'lum talablar qo'yadi. Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq talablariga adaptatsiya odatda agressiv xulq-atvorning turli namoyishlari bilan kuzatiladi. Ma'lum bo'lishicha, kichik yoshdagi bolalar agar tez-tez, baland ovozda va biror narsa talab qilib yig'lasalar, ularning tabassum qilishi kuzatilmasa, boshqalar bilan aloqa qilmasa shu orqali agressivlik xususiyatlarini namoyon etadilar. Psixoanalitik tadqiqotlar go'daklarning talablari inobatga olinmayotganda kechayotgan katta g'azab miqdori haqida ma'lum qilishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga shunday fakt ma'lumki, kichik bolalarda ona muhabbatini saqlab qolish uchun, yangi tug'ilgan ukasi yoki singlisiga nisbatan vahshiylik namoyish etishga moyillik kuzatiladi. Bolalar bog'chasining [talablariga moslashib](#), bolalar bir birini chimdilashi, mazahlashi, bir biriga tupurishi, urushishi, tishlashi va hattoki yegulik bo'lmagan narsalarni yutishi ham mumkin. Bunday harakatlar aytilmasdan sodir etiladi - impulsiv, ongsiz va ochiq oydin. Ushbu yoshda passiv agressivlik namoyishi negativizm hisoblanadi, [qaysarlik](#), gapirish yoki ovqat yeyishni rad etish, tirnoqlari yoki lablarini tishlash. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshidagi bolaning uyidagi xulq-atvori ko'proq oiladagi emotsional iqlimga bog'liq, bolalar guruhi esa o'z navbatida tarbiyachi ichki holatining yorqin aksi hisoblanadi. Agar u yoki bu agressiyani namoyish etsalar yoki kechirayotgan bo'lsalar, bolalar tomonidan agressiyani takrorlash ehtimoli oshadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda agressiya odatda zaifroq bo'lgan o'quvchilarga nisbatan ko'pincha mazah qilish, bosim o'tkazish, urushtirish, janjallashish shaklida qo'llaniladi. Maktab bolalarining bir biriga nisbatan agressiv xulq-atvori bir qator vaziyatlarda jiddiy muammoga aylanadi. O'qituvchilar va ota-onaning bunday xulq-atvorga keskin reaksiyasi odatda bolalar agressivligini kamaytirmasdan, aksincha uni kuchaytiradi, chunki u agressorlarning mustaqilligi va kuchining bilvosita isboti bo'lib xizmat qiladi. Bunga qaramasdan, aynan o'qituvchi, uning avtoriteti va agressiv xulq-atvorga ochiq munosabatini [bildirish mahorati](#), bolalarni ko'proq ijtimoiy maqullangan xulq-atvor shakllarini tanlashga undaydi Agressiv xulq-atvorning o'smir yoshidagi maxsus xususiyati - kattalar avtoritetining qo'llashi fonida tengdoshlari guruhiga bog'langanligi bilan izohlash mumkin. Ushbu yoshda

agressiv bo'lish "kuchli bo'lish yoki kuchli ko'rinish" ma'nosini anglatadi. Har qanday o'smir guruhi, lider tomonidan qo'llabquvvatlaydigan, o'zining afsonalari va udumlariga ega. Masalan, a'zolikka qabul qilish udumlari keng tarqalgan. Ko'zga tashlanadigan guruh "uniformasi" (umuman o'smirlar modasi ham) udumlar xarakteriga ega. Udumlar guruhga tegishlilik hissiyotini kuchaytiradilar va o'smirlarga xavfsizlik hissiyotini beradilar, biroq, afsonalar ularning hayot faoliyatining asosi bo'lib qoladi. Afsonalar guruhdagi ichki guruh va tashqi agressiyasini oqlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, guruh a'zosi bo'lmaganlarga nisbatan har qanday agressiya quyidagi gaplar bilan oqlanadi - "ular bizni sotdilar..., biz o'zimizni himoya qilishimiz kerak..., biz hammani bizni hurmat qilishga majbur qilishimiz kerak". Guruh afsonasi bilan ruhlantirilgan zo'ravonlik o'smirlarda o'z kuchini tasdiqlash, qaxramonlik va guruhga sodiqlik shaklida kechadi. Bir vaqtdayoq, alohida vaziyatlarda agressiv xulqatvor tashabbuschilari sifatida - alohida autsayder-o'smirlar, turli sabablar tufayli dezadaptatsiyalashgan o'smirlar va agressiya yordamida o'z mavqeini ko'tarishga urinib ko'rgan o'smirlar bo'lishi mumkin. Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo'ravonlik - e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa huquqlarni bersa, bolalarda va o'smirlarda kuch ustivorligiga asoslangan xulqatvor shakllanishi mumkin, bu esa katta insonlarning ham ijtimoiy faoliyat asosini tashkil etishi mumkin (masalan, kriminal guruhlarda). Atrofdagilarning agressiyani kuch bilan bosishga intilishi kutilgan natijaga emas, balki qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin. Katta kishilarda agressiv xulqatvor namoyishlarining turlari xilma-xil, chunki ular asosan individual xususiyatlar bilan belgilanadi. Agressiv xulqatvorni to'ldiruvchi, individual-shaxs xususiyatlari sifatida, odatda quyidagi fe'l-atvor qirralarini ko'rib chiqadilar, jamoa ma'qullamasligi, asabiylik, gumonsirash, bid'atlar (masalan, millatiga qarab), hamda aybdorlik o'rnida uyalish hissiyotini sezishga moyillik. Zo'ravonlikka moyillikni qo'llab-quvvatlashda insonning quyidagi e'tiqodi asosiy rol o'ynashi mumkin, inson o'z taqdirining yakka hukmdor xo'jayini (ba'zan boshqa insonlar

taqdirini ham), hamda agressiyaga uning ijobiy munosabati (foydali va normal hodisa sifatida). Shaxsning agressiv xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi boshqa xususiyat - uning frustratsiyani o'tkazish qobiliyati. Ma'lum bo'lishicha, frustratsiya- bu maqsad yoki ehtiyojini qoniqtirishi yo'lidagi to'sqinlikdan kelib chiqqan holat. Ba'zi bir mualliflar frustratsiyani - agressiv xulq-atvorning yetakchi sabablaridan biri deb hisoblaydilar. Umuman olganda, frustratsiya keng tarqalgan hodisa va insonlar uni bartaraf etish qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Agar agressiv xulq-atvor frustratsiya bartaraf etishiga muvaffaqiyatli ko'maklashsa, u o'rgatish qonunlariga muvofiq, kuchayishga ko'proq ehtimoli mavjud. Bu vaziyatda, insonning frustratsiyaga yuqori seziluvchanligi bo'lsa, muammolar paydo bo'lishi mumkin, shu bilan birga agar unda frustratsiya bartaraf etilishining ijtimoiy ruxsat etilgan usullari ishlab chiqilmagan bo'lsa. Boshqa - jinsiy (gender) omilining ta'sirini baholaganda, - erkaklar (o'g'il bolalar) to'g'ridan-to'g'ri va jismoniy agressiyaning juda yuqori darajalarini namoyish etadilar, ayollar (qiz bolalar) esa bevosita va verbal ko'rinishidagi agressiyani namoyish etishga moyil bo'lishadi. Umuman olganda, erkak jinsiga ko'proq jismoniy zo'ravonlikka moyillik mansub, bu borada ayollar ko'proq va muvaffaqiyatli psixologik variantni qo'llaydilar. Gender, yosh va individual omillarning [muhimligiga qaramasdan](#), ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, agressiv xulq-atvorning shakllanishida shaxs rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari yetakchi ahamiyatga ega. Bolada agressiv xulq-atvorining shakllanishiga turli oilaviy omillar kuchli ta'sir qiladi, masalan oila jipsligining past darajasi, janjalkashlik, bola va ota-onalar o'rtasida yaqinlikning kamayishi, bolalar o'rtasidagi yomon o'zaro [munosabatlar](#), oilaviy tarbiyaning noadekvat usuli, ko'pincha, juda qattiq jazolarni qo'llaydigan ota-onalar, me'yorida ortiq nazorat qiladigan (giperopeka) yoki aksincha nazorat qilmaydigan (gipoopeka), bunday ota-onalar o'z bolalarining agressiyasi va quloq solmasligi bilan ko'proq to'qnashadilar. Shuningdek, onaga nisbatan otaning agressiyasi bolaga ifodalangan negativ ta'sir ko'rsatadi (jismoniy zo'rash yoki ochiqchasiga ma'nan kamsitish). O'smirning sevimli mashg'ulotlari bo'lsa, uning quvvatini shu tomonga yo'naltirish, uni yutuqlari va mehnatsevarligi

uchun doim maqtab rag'batlantirib turish lozim. Demak, hozirgi kunda o'smirlarda namoyon bo'layotgan agressiv harakatlarlaning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorning oldini olish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatidagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nishonova Z.T., Kamilova N.G', Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» -Toshkent: 2017, 241-b
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” -TOSHKENT: 2013, 130-b
3. Кернберг О.Ф. Агрессия при расстройствах личности и перверсиях. М, 1998- 134 с
4. Ш.Мустафаева. «Ўсмир психологияси: биз билмаган жиҳатлар». Фарғона2015, 7-б